

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent farmatsevtika instituti
rektori K. S. Rizayev

“ 02 ” 2021y.



**SANOAT FARMATSIYASI VA KOSMETSEVTIKA TA‘LIM
YO‘NALISHLARI BITIRUVCHILARINI “FARMATSIYA” YO‘NALISHI
BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH KURSIGA KIRISH IMTIXONI
BAHOLASH MEZONLARI**

Jami savollar sopi	Savollarning turlari bo'yicha taqsimlanishi	Bina to'g'ri javobga berilgan maksimum ball
4	Farmatsevtik texnologiya	35
	Farmatsevtik kimyo	25
	Farmakologiya	25
	Farmatsiologiya	25
		Jami ball: 100 ball

Qayta tayyorlash kursiga kirish imtixonlarida qatnashgan talabgarlar
tomonidan topshirilgan yozma ishni sinashdoshi yoki qo‘shimcha yozma ish
topshirish ta’qilnamali. Topshirilgan yozma ish talabgarga qaytarilmaydi.

Sanoat farmatsiyasi va Kosmetsevtika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash kursiga kirish imtixonini baholash mezonlari

Sanoat farmatsiyasi va Kosmetsevtika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash kursiga kiruvchilar kirish imtixonini (yozma ish shaklda) Toshkent farmatsevtika institutida o'qiydigan tilda topshiradilar.

Kirish imtixonlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha (farmatsevtik texnologiya, farmatsevtik kimyo, farmakognoziya va farmakologiya) qayta tayyorlash kursiga kiruvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada egallaganliklarini adolatli tarzda baholashdan iborat. Bunda qayta tayyorlash kursiga kiruvchining fan yuzasidan mushoxadasi, fikrlash doirasi, qo'yilgan vazifalar yechimini topishda bilimlar va ko'nikmalar zaxirasidan qay darajada foydalana olish qobiliyati ham inobatga olinadi.

Qayta tayyorlash kursiga kirish imtixonlari tarkibiga kiritilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari uchun baholash 0 balldan 100 ballgacha diapazonni tashkil etadi.

Baholash tartibi

Ushbu fanlardan sinov yozma shaklda amalga oshirilib, unda umumkasbiy (ixtisoslik) fanlaridan umumiy 4 ta savol bo'lib, 1 savol farmatsevtik texnologiya, 1 savol farmatsevtik kimyo, 1 savol farmakognoziya va 1 savol farmakologiya fanlaridan kiritiladi.

Jami 4 ta savolning taqsimlanishi quyidagicha:

Jami savollar soni	Savollarning fanlar bo'yicha taqsimlanishi	Bitta to'g'ri javobga beriladigan maksimal ball
4	Farmatsevtik texnologiya	25
	Farmatsevtik kimyo	25
	Farmakognoziya	25
	Farmakologiya	25
		Jami ball: 100 ball

Qayta tayyorlash kursiga kirish imtixonlarida qatnashgan talabgorlar tomonidan topshirilgan yozma ishni almashtirish yoki qo'shimcha yozma ish topshirish ta'qiqlanadi. Topshirilgan yozma ish talabgorga qaytarilmaydi.

Har bir savol uchun berilgan ball	Izoh
21,0-25,0	Talabgor berilgan savollarga to'liq javob berdi. Umumkasbiy (ixtisoslik) fani jarayonlarini yaxshi biladi. Berilgan savolning mohiyatini yaxshi tushunib, ijodiy fikrlab, mo'tadil mushohada yurita oladi, mukammal bilimga ega.
17,0-21,0	Talabgor berilgan savollarga javob berdi. Umumkasbiy (ixtisoslik) fanini yaxshi biladi, fikrlaydi va mustahkam bilimga ega. Qisman yoki muhim bo'lmagan ayrim kamchiliklar mavjud - tahlil va fikrlashda ayrim xatoliklarga yo'l qo'ygan. Ayrim muhim bo'lmagan xatoliklar mavjud. Jarayonlarning bayoni to'liq emas.
14,0-17,0	Talabgor berilgan savollarga qisman javob berdi. Bayonda noaniqliklarga yo'l qo'ydi. Umumkasbiy (ixtisoslik) fanini yetarli darajada bilmaydi. Bilimlari to'liq emas. Jarayonlarning bayoni qisman.
14 balldan kam	Talabgor berilgan savollarga javob bermadi.

Qayta tayyorlash kursiga kirish savollari bo'yicha talabgorlarning umumkasbiy (ixtisoslik) fanlaridan olgan reyting ballari jamlanib, umumiy ball chiqariladi. Bunda maksimal ball 100 ballni, eng quyi o'tish balli 55 ballni tashkil etadi.